

УДК 004.8

Muldanov Fayzi Riskulovich

"Radioelektronika" kafedrası dotsenti, Jizzax politexnika instituti,

O‘zbekiston

**SUN’IY INTELLEKT-INSONNING TAFAKKUR YURITISH
QOBILIYATI.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt, insonning tafakkur yuritish qobiliyati va kompyuterda muammoni echish tahlili mavzusi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, kompyuter.

Fayzi Riskulovich Muldanov

Associate Professor of the Department of Radio Electronics, Jizzakh

Polytechnic Institute, Uzbekistan

ARTIFICIAL INTELLIGENCE — THE HUMAN ABILITY TO THINK

Annotation: This article discusses the topic of artificial intelligence, human thinking and analysis of computer problem solving.

Keywords: artificial intelligence, computer.

Sun’iy intellekt deganda insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun’iy tizim tushuniladi. Ushbu atama, shuningdek, o‘rganish va muammolarni hal qilish kabi inson aqli bilan bog‘liq xususiyatlarni namoyish etadigan har qanday texnologiyaga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin. Sun’iy intellektning ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo‘lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir.

Sun’iy intellekt tushunchasi (“Sun’iy intellekt”) dastlab AQSHda paydo bo‘ldi boshqa davlatlarda ham keng qo‘llanila boshlandi. 1981 yili sun’iy intellekt bo‘yicha Kanadada bo‘lib o‘tgan Xalqaro konferensiyada birinchi uchrashuvning o‘nta qatnashchisidan beshtasi qilingan

bashoratlar o'ta optimistik bo'lganligini, muammolar esa anchagina murakkab ekanligini tan olishdi. Bu yo'nalishda ko'pgina ilmiy va amaliy natijalarga erishilgani qayd etildi. Sun'iy intellektni yaratish bo'yicha ilmiy ishlar rivojlangan davlatlarda olib borilayapti. *Intellekt - insonning tafakkur yuritish qobiliyatidir.* Suniy intellekt - inson intellektining ba'zi vazifalarini uzida mujassamlashtirgan avtomatik va avtomatlashtirilgan tizimlar xususiyati.

Sun'iy intellekt shaxsning nisbatan barqaror bo'lgan, misol uchun, axborotni qabul qilish va undan ma'lum masalalarni hal qilishda foydalana olishi kabi aqliy qobiliyatini ifodalaydi.

Kompyuterda hal etilayotgan echimlar, hatto ayrimlari anchagina murakkab bo'lsada, intellektual hisoblanmaydi, Qandaydir standart materiallar masalani echish metodini bilmaydigan o'quvchi uchun javobni izlash, aniq aqliy mehnatni talab qiladigan intellektual amal hisoblanadi.

Uslubni bilgan, ushbu turdagi masalani avtomatik ravishda echadi. Sun'iy intellekt sohasidagi ishlar, asosan, kompyuterni hozircha kam egallagan uslub va usullardan samaraliroq foydalanishga "o'rgatish"dan iborat. Bu sohada anchagina ishlar qilingan, ya'ni intellektual vazifalarni hal qiladigan dasturlar yaratilgan. Mutaxassislar yaratilgan dasturlarni aniqroq, bexato ishlaydigan qilib yaxshilash va ularni takomillashtirish ustida ish olib borishmoqda.

Kompyuterda muammoni echishning optimal varianti tanlanadi. Intellektual tizimning asosiy prinsipi shundaki, biror masalani echishda insonning mantiqiy fikrlash usulidan foydalaniladi. Murakkab masalalarning echimini izlashda inson ma'lum qonuniyatlarni bilishga asoslandi. U matematik teoremlar yoki amaliyotdan olingan qoidalardan foydalanadi, murakkab masalalarni sodda masalalarga ajratadi va boshqa usullarni tatbiq etadi. Intellektual tizimning asosiy vazifasiga tuplangan bilimlar

omborini tatbiq etish va undan foydalangan holda murakkab masalalarni echishning optimal yo‘llarini izlash hamda echimini topish kiradi.

Sun’iy intellekt rivojlanishida davom etar ekan, sun’iy intellekt texnologiyalarida ustunlikka erishish uzoq vaqtdan beri global ustunlikka da’vogarlik qilib kelayotgan yana bir kuch –sun’iy intellektni rivojlantirish uchun texnik, sanoat va ilmiy sohalarga moliyaviy resurslar hamda inson omilini jalb qilish borasidagi harakatlarni boshlab yubordi.

Xitoyda sun’iy intellektning tobora rivojlanishi ortida xususiy sektorda faoliyat yuritayotgan yirik texnologik kompaniyalarning ham muhim roli bor. Albatta, bu kompaniyalar mamlakatda shakllanib ulgurgan katta miqdordagi ma’lumotlar bazasi va sun’iy intellekt uchun yangi bozorlar kashf qilish, ularni tijoratlashtirish borasida davlatning qo‘llab-quvvatlovi kabi o‘ziga xos imtiyozlarga ham ega. Xitoyning “Alibaba”, “Baidu” va “Tencent” kabi gigant texnologik kompaniyalari o‘ziyurar avtomobilga o‘xshash mahsulotlar ishlab chiqarish uchun muhim hisoblangan tasvir va ovozni tanib oluvchi sun’iy intellekt texnologiyalari borasida bir necha yildan beri izlanish olib boradi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, sun’iy intellektga asoslangan zamonaviy dunyoning eng xavfli jihati shundaki, u «G‘olib hamma narsani oladi» tamoyiliga asoslangan. Bu esa ijtimoiy keskinlik va xalqaro nizolarni yanada kuchaytiruvchi omil hisoblanadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Turapov U.U., Muldanov F.R. Analysis of criteria for image processing and recognition on the basis of informative and strong signs of personal face structure. //Internasional conference AIR publishing. ICPPMS Skopus&Web of Science indexed.

2. U.U.Turapov, F.R.Muldanov. Robot ko’z analizatori yordamida yuz tasvirni tanib olish va identifikasiyalash usullarini tanlash va tahlil etish. Экономика и социум, 719-726.

3. J.A.Mustofoqulov at all. Methods for designing Electronic device circuits in the “Proteus” program. Journal of "Экономика и социум" №4(107) 2023.
4. Mustofoqulov, J. A., Umarov, B. K., Astashkov, N. P., Druzhinina, T. Y., & Sobolev, V. I. (2021, October). Automated system for warming up traction electrical equipment of an electric locomotive. In Journal of Physics: Conference Series (Vol. 2032, No. 1, p. 012075). IOP Publishing.
5. J.Mustofoqulov, M.Suyarova, A.Muxamedjanov. Nosimmetrik uch fazali o'zgaruvchan tok sistemasini multisim dasturida hisoblash. “Экономика и социум” халқаро илмий амалий журналі. №1(128) 2025.
6. Петров, Р. И., & Муртазин, Э. Р. (2024). БЕЗОПАСНОСТЬ И ЗАЩИТА ОТ РАДИОЧАСТОТНЫХ И ЭЛЕКТРОМАГНИТНЫХ ИЗЛУЧЕНИЙ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ. Academic research in educational sciences, (2), 167-169.
7. Кузиев, Б. Н., & Муртазин, Э. Р. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ. Экономика и социум, (5-2 (108)), 786-789.
8. Кузиев, Б. Н., & Муртазин, Э. Р. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ. Экономика и социум, (5-2 (108)), 786-789.